

2023-yil – Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili

IJDODIY PARVOZ

2023-yil sentyabr № 9 (124) ✓ dsmi.uz ✓ nashriyot@dsmi.uz t.me/dsmi_uz



YURT TARAQQIYOTIGA XIZMAT QILUVCHI MUHIM DASTURILAMAL



Eldor SHERMANOV,
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat
instituti rektori v.b.,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD)

O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi qabul qilinganligi, Yangi O'zbekistonni barpo etishning konstitutsiyaviy asoslarini mustahkamlashga xizmat qildi. Shuningdek, dunyoda kundan-kunga yangi-yangi sinovlar, xavf-xatar va tahdidlar paydo bo'layotgani, bugungi ziddiyatlari jarayonlar, iqtisodiy qarama-qarshiliklar rivojlangan davlatlar aholisini ham jiddiy o'ylantirib qo'ymoqda va bularning barchasi bizga ta'sir ko'rsatmasdan qolmaydi.

Davlatimiz rahbarining farmoni bilan tasdiqlangan, Yangi O'zbekistonning zamonaviy iqtisodiy tizimlari, ixcham va samarali davlat boshqaruvining joriy etilishi o'z navbatida, aholimizga farovon turmush darajasini yaratib berishning zamonaviy mexanizmlarini o'z ichiga olgan "O'zbekiston – 2030" strategiyasi bu mamlakatimizning kelgusi yetti yilligiga bag'ishlangan oqilona rejalashtirishning zamonaviy asosidir.

Donolar so'zlaydi ...

Ilmini fursat
bo'lganda o'rganish
kerak, chunki ilm
zarur bo'lgan
paytda fursat
topilmaydi.

Abdulloh ibn MA'SUD

Johilning bilaman
deyishi, xuddi
ko'rning ko'raman,
deyishiga
o'xshaydigan
holat.

Muhammad KAMOL

Yashaganimiz uchun emas,
sevganimiz uchun ham
hayotni yaxshi ko'ramiz.
Sevgida doim qandaydir
telbalik bo'ladi. Bu
telbalik uchun esa har doim
sabab topiladi.

Fridrix NITSHE

Men dunyo tarixini o'qib
bir xulosaga keldim, dunyo
podshohlari to'plagan
jamiki sultanat-u boylik,
qasrlar-u saroylar Muhammad
Alayhissalomning yamoq
yaktaklariga ham arzimas ekan.

GYOTE

Bugungi sonda

O'ZBEK KLIPLARIDA
matn, musiqa va
tasviriy yechim
mutanosibligi

Kliplarni ommaga saralab
ularning badiiy va tasviriy
sifatini ko'rib chiquvchi hay'at
tashkil etilgan. Respublika
televideniyesi qoshidagi
mazkur guruh tarkibida
faoliyat ko'rsatayotgan
mutaxassislar ko'rigan
o'tgan kliplar davlat
telekanallari orqali turli
dasturlar davomida uzatib
boriladi. Hay'at qarori bilan
tasdig'ini topmagan kliplar
chi, ular taqdiri nima bo'ladi?
– degan haqli savol tug'iladi.

TAQDIR

Shahlo ko'zlarini oftob
nurlariga tutgancha shivirladi:
"O'zingga shukr, Yaratgan
Egam! Faqat sendangina
najot kutgandim, mo'jizangni
ko'rsatding, rahmat!"

5

AKTYOR – qalb shifokori

O'zbek Milliy Akademik
drama teatri va san'atkori,
O'zbekiston Respublikasida
xizmat ko'rsatgan artist
Mehriddin RAHMATOV
tahririyatimiz mehmoni.

6

AQSh dollari tarixiga qisqa nazar

1879-yilda AQSh hukumati
davlatning rasmiy valyutasini
muomalaga kiritish chog'ida
unga hech ikkilanmay
hammagaga ma'lum va mashhur
bo'lgan dollar nomini
tanlashadi. O'sha paytda
mashhur shaxslardan biri
T.Jefferson "Yangi Amerika
o'zining yangi puliga juda eski
nom tanladi" – degan edi.

8

2

YURT TARAQQIYOTIGA XIZMAT QILUVCHI MUHIM DASTURILAMAL

1 Strategiya Yangi O'zbekiston qurish g'oyasi asnosida amalga oshirilayotgan, hammamiz ko'rib-bilib turgan keng ko'lamlari va ayni vaqtida xalqparvar islohotlarni izchil davom ettirishga, soha va yo'nalishlarni yanada rivojlanirishga qaratilgan bo'lib, jamiyat taraqqiyotida muhim iz qoldirishi bilan beqiyos ahamiyatga ega.

Strategiya beshta ustuvor yo'nalish bo'yicha 100 ta muhim maqsadni o'z ichiga qamrab olgani bilan e'tiborga molik. Bu mamlakatda islohotlar samaradorligini keskin oshirish, barqaror iqtisodiy o'sish orqali daromadi o'rtaqchadan yuqori bo'lgan davlatlar qatoridan o'rinni olish, xalq xizmatidagiadolatli va zamonaviy davlatni barpo etishdek buyuk maqsadlarga xizmat qiladi.

Strategiyada o'zgarishlarga erishishga qaratilgan bir qator yo'nalishlari asosiy e'tibor berilgan. Jumladan, olyi ta'lim qamrovini kengaytirish, olyi ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish masalalarida ham ayni davr uchun muhim bo'lgan qator maqsadlar belgilanganligi bizni mamnun etadi. Kelgusi faoliyatimiz uchun dasturilamal bo'lib xizmat qiladigan muhim hujjatda yoshlarni olyi ta'lim bilan qamrab olish darajasini kamida 50 foizga yetkazish belgilangan. Umumiyo'rtta ta'lim tashkilotlarini olyi ma'lumotli pedagog kadrlar bilan to'liq ta'minlash, 30 ta olyi ta'lim muassasasining ta'lim dasturlarini xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazish, "Top-500" ga kiradigan xorijiy universitetlar bilan hamkorlikda kamida 50 ta qo'shma ta'lim dasturi asosida "ikki diplomli tizim"ni joriy etish, 10 ta olyi ta'lim muassasasini dunyoning eng nufuzli "Top-1000" olyi ta'lim tashkilotlari reytingiga kiritishga erishish, olyi ta'lim muassasalarida

ilmiy tadqiqotlar natijadorligini oshirish va ilmiy salohiyatni 70 foizga yetkazishga qaratilgan vazifalar belgilab berilganidek, samarali amaliyotga samarali tatbiq etilsa, albatta, keng istiqibolda o'zining ijobjiy natijasini beradi.

Shuningdek, 5 ta olyi ta'lim muassasasi milliy tadqiqot oliygochlarga aylantirilib, qo'shimcha 120 ming o'rinni o'quv binolari hamda 150 ming o'rinni talabalar turar joylari qurilishi ham e'tiborga molik. Shu bilan bir qatorda Strategiyada yoshlarni qo'llab-quvvatlashning zamonaviy mexanizmlariga ham alohida e'tibor qaratilgan.

Jumladan, yoshlarni zamonaviy kasblar va chet tillariga o'qitish tizimini yaratish, bunda, Yoshlarning zamonaviy kasblar bilan mashg'ul bo'lishini ta'minlash uchun har bir viloyatda bittadan "Kreativ park"lar faoliyatini tashkil etish, ularga yiliga kamida 40 ming nafar yoshlarni jalb qilish va maktab bitiruvchilari kamida ikkita xorijiy til va bitta kasb egallashini ta'minlash nazarda tutilgan. Yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish, ularning ilmiy faoliyatini rag'batlantirish maqsadida ilmiy va innovatsion faoliyat, intellektual o'yinlar hamda chet tillarini o'rganishga jalb etish orqali kamida 2 million nafar yoshlarning iqtidorini rivojlanirish va har yili 500 nafar iste'dodli yoshlarni xorijining nufuzli olyigohlariga o'qishga yuborish asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan.

Ma'lumki, aynan ta'lim tizimidagi islohotlar yurtimizda Uchinchi Renessansga poydevor bo'lib xizmat qiladi. Ayni paytda respublikamizda yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash va bandligini ta'minlash bugungi kunda ustuvor yo'nalishga aylandi. Mamlakatimizda 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar 19 milliondan ortiq yoki aholining 55

foizini tashkil qiladi. Yurtimizda yoshlar siyosati xalqaro umume'tirof etilgan huquq va normalarga hamohang tarzda yuritilmoqda. Zero, yoshlar davlatimizning eng katta boyligi, bebaaho xazinasidir. Shu boisdan ham Strategiyada 400 ming yoshning bandligini ta'minlash va muammolarini hal etishga erishish hamda yoshlar ishsizligi darajasini 14 foizdan 11 foizga kamaytirish yuzasidan chora-tadbirlar belgilanganini faqat qutlash lozim.

Xulosa qilib aytganda, "O'zbekiston – 2030" strategiyasi nafaqat mamlakatimizning kelgusi yetti yillik taraqqiyotini, shu bilan birga, uning uzoq yillik rivojlanish strategiyasini belgilab beruvchi muhim hujjatdir. Unda belgilangan maqsadlarning ijrosi o'z vaqtida ta'minlanishi davlat va jamiyatning har tomonlama hamda jadal rivojlanishida, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Eng asosiysi, "O'zbekiston – 2030" strategiyasi mamlakatimizda ta'lim sifatini oshirish, yoshlarimizni har jihatdan barkamol qilib tarbiyalash yo'lidagi boshlangan islohotlarimizni yangi bosqichga olib chiquvchi, puxta ishlab chiqilgan, haqiqiy dasturilamaldir. Endi undagi vazifalarga mas'uliyat bilan yondashib, ko'rsatilgan ezgu maqsadlar yo'lidan og'ishmay samarali faoliyat ko'rsatishimiz lozim. Demak, Vatan taqdiri, kelajagiga befarq bo'imasak, yurtimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamlari islohotlarga hissamizni qo'shsak, shubhasiz, o'zimiz orzu qilgan Yangi O'zbekistonni barpo etamiz.

Taklif

Hammamiz ko'rib, shohid bo'lib turibmiz, keyingi besh-olti yil mobaynida mamlakatimizda iqdisodiy, ijtimoiy va siyosiy sohalarda katta sur'at bilan keng ko'lamlari islohotlar amalga oshirildi. Ayni paytda mazkur islohotlar ayrim sohalarda biz kutgan darajadagi yuksak natijalarini bermayotgani ham bor gap. Bunga esa fuqarolarimizning siyosiy ongi yetarli darajada shakllanmaganligi, bo'layotgan o'zgarishlarga daxldorlik hissi hammada ham uyg'onmayotgani sabab bo'lmoxda. Shu sababli ham, bizningcha, yurtdoshlarimizda faollik ehtiyojini tarbiyalash uchun tashviqot-targ'ibot ishlarini "xo'jako'rsin" uchun emas, doimiy va uzlusiz olib borish zarur. Ayniqsa, kelajagimiz bo'lgan yoshlar orasida bunday tadbirlarni ko'proq o'tkazish maqsadga muvofiq. Bu boroda donishmand ajdodlarimizning, ulug' mutafakkirlarning bebaaho o'gitlari, pand-nasihatlari, yo'l-yo'riqlaridan, ular qoldirgan bebaaho meros – kitoblardan foydalanish ham o'z samarasini beradi, albatta. Jumladan, bundan qariyb o'n asr burun yashab o'tgan ulug' vatandoshimiz Yusuf Xos Hojibning qator asarlarida bugungi kunimiz uchun ham dolzarb bo'lgan hikmatlarga duch kelamiz.

Abduljan BARAYEV

Yusuf Xos Hojib o'limas "Qutadg'u bilig" asarida shunday deydi: "Adolatli siyosat yurituvchi rahbarning o'zi avvalo bilimdon va to'g'ri so'zli bo'lishi, yolg'on so'zlamasligi kerak. Yolg'on so'zlagan rahbarga xalq ishonmaydi va unga nisbatan behurmat bo'ladi, kerak bo'sa yurtni tashlab ketadi, oxir-oqibat bu el barakoti uchadi".

Mutafakkir Yusuf Xos Hojib adolatli davlat boshini xuddi quyosha o'xshash xislatlarga ega bo'lishi kerak, deb hisoblaydi va shu sababdan o'zining shoh asarida davlat boshi, ya'ni shohni "Kuntug'di" deb atarkan, uning adolat timsoli sifatidagi ta'rifini keltiradi: "Kuntug'di ismli shoh... dono va adolatli ekanligi bilan dong taratgan edi. Uning himmati va muruvvati chek-chevara bilmas edi. Shoh mamlakatni obod etish, raiyatining esa shod-xurram yashashi istagi bilan yonardi. Uning shuhrati butun olamga yoyilgan edi. Ishlarini olyjanoblik va saxovat bilan yurgizganidan mamlakatda farovonlik va osoyishtalik hukm surar edi. Shoh mamlakatdagi barcha donishmandlarni o'z atrofiga to'plab, maslahatlashib ish yuritar, ularni ezzulik ishlariga jalb etar edi.

**Jam etdi olamning saralarini,
Bilimdon, odamning saralarini...**

Muallif shohning saltanatlari boshqarish xususidagi mulohazalarini keltirib o'tadi:

"Quyosh hech kimni yaxshi-yomonga ajratmaydi, hammaga bir xilda nur sochaveradi, ammo o'zi kamaymaydi. Men ham unga o'xshayman, hammaga birdayman, ya'ni mening oldimda hamma birday mavqega ega. Men uchun qarindosh-urug' yoki tanish-bilish degan gap bo'lmaydi. Hammaga birday odil siyosat nuqtayi nazaridan yondashaman. To'g'ri bo'lsa maqtovini, aybdor bo'lsa jazosini oladi. O'g'limmi, yaqinlarimmi yoki chaqmoq kabi o'tkinchi mehmon bo'lsin, adolat borasida ular men uchun bir xildir. Men uchun mezon va asos – adolat. Mana shu boshliqlarning ish uslubi bo'lishi kerak, ya'ni hammaga birday munosabatda bo'lism, odillik bilan hukm chiqarish va uni to'g'ri ijob etish. Boshliq eliga adolat ko'rsatsa, barcha tilak va orzularga yetadi".



Yusuf Xos Hojib bundan ming yil oldin aytgan hikmatlar bugungi kunda ham o'z qimmatini yo'qotmaganligi aniq. Muallif shoh asarida elga bosh bo'lish juda og'ir va mas'uliyatlari ish ekanligini alohida ta'kidlab o'tarkan, rahbar, albatta, ezzulik ziynatlari bilan bezalgan bo'lishi shart, deydi. Yusuf Xos Hojibning fikricha, adolatga tayangan tuzum buzilmaydi. Rahbarlarning asosiy vazifasi xalqni odilona boshqarish, qonun ustuvorligini ta'minlashdan iborat. Qaysi rahbar hushyor

bo'lib, adolatli siyosat yurg'azsa, elini yashnatadi. O'z eliga adolatli bo'lgan rahbarlar tinch yashaydi. Elning buzilishi asosan zo'ravonlik va g'ofillik ta'siridandir.

**Elga bosh bo'layin desang to abad,
Odil bo'l, elingni asragin faqat.**

Agar "Qutadg'u bilig"da keltirilgan ko'pdan-ko'p pand-nasihatlar, hikmatlarni bir mulohaza qilib ko'rsak, hammasida bugungi kunimizning ayrim tashvishlari, muammolari va ularni hal qilish yo'l-yo'riqlari ko'rsatilganligidan hayratga tushamiz. Tabiyiki, bunday bebaaho asar bizga zamondosh katta-kichik rahbarlarga birday tegishli bo'lib, ular faoliyatida asqotishi turgan gap. Nazarimda, Yusuf Xos Hojibning asrlar qaridagi o'tib kelayotgan bebaaho asari "Qutadg'u bilig" har bir rahbar xodimning ish stolida turishi zarur bo'lgan qo'llanmadir. Toki rahbarlar vaqtqi-vaqtqi bilan kitobni varaqlab, o'zlarini qiyinab kelayotgan kundalik savollarga javob topsinlar. Ana shunda bunday yetakchilarning faoliyatda xatolik va yanglishishlar uchramaydi, xalq oldida yuzlari yorug' bo'ladi.

Ushbu maqolani yozishimga bir sabab turtki bo'ldi. Nafaqat butun turk dunosida, balki boshqa ellarda ham "Qutadg'u bilig" muallifiga ulkan ehtirom va izzatikromlar ko'rsatilish, uning tavallud yili keng nishonlab kelinmoqda. Biroq biz bu borada maqtanolmaymiz. 2019 yil ulug' Yusuf Xos



Hojib tavalludiga 1000 yil to'idi. Kamina bu borada tegishli idoralarga mazkur sanani nishonlash yuzasidan o'z takliflarim bilan maktublar yo'lladim. Lekin avvaliga reja yaxshi tuzilmagan deyishdi, so'ng hayotimizda pandemiya degan balo paydo bo'lgach, bu masalani yana qo'zg'ash ortiqchadek tuyuldi.

Hammamiz juda yaxshi bilamiz, Prezidentimiz buyuk ajdodlarimizning asarlarini o'rganish va ularni yoshlarga yetkazish muhim ahamiyatga egaligini botbot takrorlab, ta'kidlab turadilar. Shunday ekan, fikrimcha, ezzulikning kechi bo'imasak deganlaridek, buyuk mutafakkir Yusuf Xos Hojibning o'n asrlik tavalludi bayrami keng jamoatchilik, ayniqsa, yoshlar ishtirokida tantanali o'tkazilsa juda go'zal ish bo'lar edi. Yana bir taklifim shuki, agar imkonni bo'lsa, bu ayyomni xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya tarzida tashkil qilib, xorijagi Yusuf Xos Hojib tadqiqotchilarini ham taklif etilsa, ma'ruzalar saralanib, to'plam sifatida nashr qilinsa va maktablar, olyi o'quv yurtlari, kutubxonalarga tarqatilsa maqsadga muvofiqdir.

2023-yil O'zbekistonda "Insonga e'tibor va sifatlari ta'lim yili". Mana shunday mo'tabar yilda buyuk vatandoshimiz Yusuf Xos Hojib bobomizga e'tiborli bo'lib, tavallud sanasini nishonlansa juda maqbul ish bo'lardi.

O'ZBEK KLIPLARIDA matn, musiqa va tasviri yechim mutanosibligi

San'at insoniyat e'tiqodini but, iymonini mustahkam qiluvchi, qanoat, ruhiy osoyishtalik ulashuvchi qalb ko'zgusidir. Bu kuch orqali inson qalbi va tafakkuriga bevosita ta'sir o'tkazishi mumkin. Shunday ekan, san'atning har bir turi kishilarni ma'nан poklaydi.

O'zbek san'ati azal-azaldan nafaqat Sharq, balki, butun jahon san'atida o'zining betakror namunalari bilan yuksak e'tirofga sazovor bo'lgan. Ayniqsa, san'atning qo'shiqchilik sohasiz kundalik hayotimizni tasavvur etish juda mushkul. Chunki, yaxshi qo'shiq kishida ruhiy yengillik baxsh etadi, tashqi dunyoga estetik munosabatda bo'lismi shakllantiradi, qolaversa, tarbiyaviy jihatdan ta'sir etish xususiyatiga ham ega. O'zbek milliy san'ati tarixida shunday buyuk insonlar o'tgan-ki, ular kuylaganda yuraklarga allaqanday orom kirgan, xalq ularning qo'shiqlarini jon qulog'i bilan tinglagen. Mulla To'ychi Muhammedov, Jo'raxon Sultonov, Ma'murjon Uzoqov, Komiljon Otaniyozov, Orifxon Hotamov, Fahriddin Umarov singari usta xalq hofizlari shular jumlasidandir. Aynan mana shu insonlarning mashaqqatli mehnatlari, yuksak iqtidorlari tufayli, milliy qo'shiqchilik san'ati eng yuqori cho'qqiga ko'tarilgan.


Buyuk alloma Sayfi Saroyi o'zining "Vasf ul-shuar" asarida shoirlarni majoziy ma'noda uch turga bo'lib, ularni bulbul, to'ti va zog'ga qiyoslaydi. Agar biz ham san'atkorlarga nisbatan ham xuddi shunday qiyoslaydigan bo'lsak, ularga bulbul, kakku, chumchuq deya ta'rif beramiz va biz yuqorida nomlarini zikr etib o'tgan ustoz san'atkorlarni hech ikkilanmay birinchi toifa vakillari, ya'ni bulbullar deb ayta olamiz. Masalan, Tavakkal Qodirov ijrosidagi "Rayhon", Fahriddin Umarov ijrosidagi "Ey muhabbat", Halima Nosirova ijrosidagi "Chaman ichra" kabi qo'shiqlar hamon o'immas navolar sifatida baholanib kelinmoqda. Biroq bugungi kunda milliy qo'shiqchilik san'atining estrada yo'nalishida ijod qilayotgan shunday qo'shiqchilar paydo bo'lgan-ki, ularning ijodi borasida gap ketganda, ularga nisbatan "hofiz", "xonanda" atamalarini qo'llashga biroz ikkilanib qolasan kishi.

Yuqorida keltirilgan toifalarning uchin-chisi, ya'ni chumchuqqa qiyoslash to'g'ri-roq bo'ladi. Negaki, chumchuq qanchalik "chiroyli kuylayapman" – deb maqtanmasin, baribir uni bulbul deb ayta olmaymiz. Qolaversa, chumchuqlarning sayrashi juda tez insonlar medasiga tegadi. Biz bekorga bu gaplarni ta'kidlayotganimiz yo'q. Sababi, so'nggi yillarga estrada yo'nalishida ijod qilayotgan, ijodkorlarning ruhiyatiga, ma'naviyatiga emas, uning kayfiyatiga ta'sir qilish bilan qoniqish hosil qilayotgan yoki o'z nafsoniyati yo'lida jon olib, jon berayotgan qo'shiqchilarining yengil-yelpi "oh-vohlari" ham aynan mana shu chumchuqlarning sayrashini eslatadi. Bunday qo'shiqlar tinglovchilarining g'ashiga tegib, juda qisqa fursatda unutilib ketadi. Boisi, ularning na matni, na kuyida ma'no bor. Ijroga-ku umuman to'xtalmasa ham bo'ladi. Biz bu gaplar bilan o'zbek zamonaviy milliy qo'shiqchilik san'atini yerga urish yoki uning ustidan qora chiziqlar tortish niyatida emasmiz. Ammo ming afsuski, sohaning bugungi holatiga achinmasdan ilojimiz yo'q.

Barchaga ma'lumki, tomoshabin qo'shiqchiga ergashadi va o'zgacha nigoh bilan qaraydi. Aynan qo'shiqchilik san'atidagi kliplarga e'tibor beraylik. Hozirda qo'shiqlarga olinayotgan aksariyat kliplarni kuzatar ekanmiz, tasviriy yechimdag'i no'hoqliklarning, matndagi sayozqliklarning guvohi bo'lamiz.

Bugungi kunda tasvirga olingen kliplarda tasviriy yechim va matnlarni nomutanosibligini ko'rib, beixtiyor klipmeyker, operatorlar "qayerga qarayotgan ekan?" – degan savol tug'iladi. Ayni kunda deyarli barcha qo'shiqlar Kliplarida go'zal qizlar, ularning ekzotik qarashlarini bot-bot ko'ramiz. Vaholanki, qo'shiq matni ayriliq, dard-alam yoki boshqa mavzularni aks ettirib turganda, ekranda g'arbona libosdag'i qizlar, yevropacha nigohlar tasvirlanadi. San'atkorlar o'z iqtidoriga ishonmaganliklari uchun go'zal qizlar orqali tomoshabinlar e'tiborini tortishga harakat qilayotgandek tuyuladi. Bu borada operator mahorati katta ahamiyatga ega. Barcha san'at sohalari qatorida qo'shiqchilikka ham ijodiy erkinlik berildi. Natijada san'at ahli istagancha ijod qilish imkoniga ega bo'lidi. Albatta bu ijobji holat. Ammo guruch kurmaksiz bo'lmaydi. Bu erkinliklardan savodsizlarcha foydalayotgan qo'shiqchi-xonandalar, klipmeykerlar, operatorlar yo'q emas.

Xonanda Manzuruning "Seniki bo'lay" qo'shig'i yoshlar orasida xit darajasiga yetdi. Albatta bu xonandaning yutug'i. Ammo



qo'shiqqa olingen klip umuman talablarga javob bermaydi. Manzuruning atrofida to'rt-beshta yigit rok uslubida raqsga tushishmoqda, xonanda esa, ular orasida turib olib, goh unisiga, goh bunisiga ishvayu noz qiladi. "Meniki bo'lasiz, seniki bo'lay" kabi jumlalari o'zbek qizining behayolarcha kuylashi bo'lsa, xonandaning kiyinish uslubi o'zbekona qadriyatlarga mos emas. Klipda ham shularning ko'zgudagi aksini ko'ramiz. Tasviriy yechimda kompozitsion qurilish umuman ko'zga tashlanmaydi. Tasviriy tafakkur, badiiy yetulklik, operator mahoratining yo'qligi, qo'shiqning umri boqiyligiga albattra ta'sir o'tkazadi. Bunday kliplarning "bolalab" ketayotganligi qo'shiqchilik, operatorlik san'atining fojasi deb bilaman. Shu o'rinda ayтиб o'tish lozim, tomoshabinga taqdim etilayotgan kliplarning barchasi ham to'laqonli emas. Ayrim hollarda kliplarning vizual sifati mukammal bo'lsa, boshqa birida musiqiy asosi yoki she'riy matni sayoz, ko'p hollarda esa kuy-ohanglar Sharq va G'arb musiqasiga taqlid natijasidir.

Kliplarni ommagalar saralab ularning badiiy va tasviriy sifatini ko'rib chiquvchi hay'at tashkil etilgan. Respublika televideniyesi qoshidagi mazkur guruuh tarkibida faoliyat ko'rsatayotgan mutaxassislar ko'rigidan o'tgan kliplar davlat telekanallari orqali turli dasturlar davomida uzatib boriladi. Hay'at qarori bilan tasdig'ini topmagan kliplar-chi, ular taqdirlari nima bo'ladi? – degan haqil savol tug'iladi.

Hayotda har bir narsaning o'z vazifasi, xususiyati bor. Masalan, taomni tanaga jismoniy quvvat to'plash uchun iste'mol qilinsa, kiyim-kechaklardan issiq-sovuqdan, tashqi ta'sirlardan himoyalananish uchun foydalilanadi. Xuddi shu kabi qo'shiqni ham ma'naviy ozuqa, hech bo'limganda madaniy hordiq chiqarish uchun tinglashadi.

Ammo bugungi estrada san'atida yaratilayotgan ko'plab qo'shiqlar buning mutlaqo aks ta'siri, ruhiyatni behalovat qilib, jazavaga solishgacha borayotgani yolg'on emas. Ayniqsa, bunday tashviqot ishlarni amalga oshirishda ommaviy axborot vositalari, xususan, nodavlat telekanallar va xususiy radio stansiyalarning o'ni beqiyos ekanini alohida ta'kidlab o'tish o'rindilid. Qo'shiqning yaralishida ham ma'lum qoida, o'zaro bog'liqlik bo'ladi. Balki, bugun san'atda yuzaga kelib qolayotgan yengil-yelpilikka garmoniyaning buzilishi sabab bo'layotgandir?! Yoqimli ovoz egasi bo'lish yaxshi qo'shiqchi degani emas. Haqiqiy toza ovoz, yaxshi matn va chiroyli kuy hamohangligida yuzaga chiqadi. Shundagina hofizning mahorati ko'rindi. Ammo bugungi kunda ham shoirlik, ham bastakor, ham kuylashni o'z ko'nglida qoyillatayotgan "davrimiz qahramonlari" zamonaviy milliy qo'shiqchilik san'atimizni



Anvar ADILOV,
O'zDSMI "Ovoz rejissyorligi va operatorlik mahorati" kafedrasi o'qituvchisi

Bugungi kunda man'aviyatning ko'zgusi hisoblangan san'atning rolini yanada kuchaytirish, zamonaviy qahramonlari siyosini aks ettirish, xalqimiz ma'naviyatini yanada yuksaltirish, yosh avlod qalbi va ongiga ezgulik g'oyalarini singdirish ustuvor vazifa qilib belgilandi. Bugun butun dunyoda mafkuralar kurashi, geosiyosiy jarayonlar avj olayotgan davrda san'at turli maqsadlarni amalga oshirishning eng samarali vositasiga aylanib qolgan. Negaki san'at inson ongi va qalbiga ta'sir ko'srata oluvchi ulkan kuchga ega. Shuning uchun ham "Ommaviy madaniyat" nomi ostidagi qora madaniyat yoshlarning ongu-shuurini zaharlab, o'z ta'sirini o'tkazishda san'atni qurol qilib olgan. Lekin achinarlisi shundan iboratki, san'atning ko'zgusi hisoblangan xonanda, qo'shiqchi, san'atkorlarning o'zlarida ma'naviyat masalasi ancha oqsalayotgan hech kimga sir bo'lmay qoldi.

Barchamizga ayonki, kuy-qo'shiqqa, san'atga muhabbat, musiqa madaniyatini xalqimizda bolalikdan oila sharoitida shakllanadi. Eng muhimmi, bugungi kunda musiqa san'ati navqiron yosh avlodimizning yuksak ma'naviyat ruhidha kamol topishida boshqa san'at turlariga qaraganda, ko'proq va kuchliroq ta'sir ko'sratmoqda.

Bizning ertangi kunimizning rivojida yetarli darajada o'rin egallagan milliy estrada san'ati bugungi kunimizda keng imkoniyatlar og'ushida tez suratlarda o'sdi va rivojlandi. Milliy estrada san'atimiz mustaqillik yillarda sifat darajasidan yuqori bosqichga ko'tarildi. Bularning natijasida milliy va jahon musiqa san'atini o'rganish va rivojlantirishga yangi imkoniyatlar ochib berildi. Bu sohada rivojlanish borligi quvonarli hol. Biroq, yaratilgan imkoniyatlarga munosib javob beradigan asl san'at asarlarini hamon kutmoqdamiz. Milliy estrada san'atida ijod qilayotgan ijodkorlar taqdim etayotgan "asar"larning aksariyati talabga javob bermaydi. Xorijiy so'zlarni qorishtirib, behayo qiliqlari bilan o'zini xalqqa ko'z-ko'z qilishga urinayotgan ayrim yoshlar o'z ishlarni san'at deb atayotganlardan ham tonib bo'lmaydi. Hayotimizga zamonaviy texnikaning kirib kelishi imkoniyatlar eshigini keng ochdi, biroq, musiqiy kliplar sonining ko'payishi sifatga ta'sir ko'sratdi.

parokandalik sari yetaklayotganlarini nahot o'zlar tushunmayotgan bo'lsa? Telba-teskari, ma'no va mantig'i yo'q so'zlarni aytib, xalq oldiga chiqib qarsak olayotganda "muxlislar ishonchi" ularni o'yantirmasmikan? Eng achinarlisi, bugungi o'zbek zamonaviy milliy san'ati haqida so'z borganda, bir, ikki so'zlardan iborat yengil-yelpi oh-vohlar tarozining yukini bosib ketmoqda. San'atkorlar hamma davrlarda ham ommanning e'tibor markazida turuvchi shaxslar bo'lib kelgan. Shu jihatdan ular xalqni qo'zg'ata olish, tinchlanirish, unga orom berish hamda yuragiga g'ulg'ula solishdek kuchga egalar. Bu borada xalq ularning tutgan yo'llari to'g'ri yoki noto'g'ri bo'lishidan qat'iy nazar ularning ortidan ergashadi.

San'at va ma'naviyat. Bu ikkisi o'zaro uzviy bog'liq, bira ikkinchisiga asos bo'lib xizmat qiluvchi tushunchalardir. Ularni bir-birisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Zero, ma'naviyatsiz san'at, san'atsiz ma'naviyat rivojlana olmaydi. San'at millat ma'naviyatini va madaniyatini shakllantirishda asosiy omil, shuningdek, uni boricha o'zida aks ettirib turuvchi ko'zgudir. Ma'naviyat esa barcha go'zalliklarni ibtidosidir.

Millatning borligi, uning ma'naviy salohiyati bilan o'chanar ekan, u hamisha davlatning diqqat markazida bo'lib qolaveradi. San'at esa ma'naviyatning ajralmas qismi shuningdek, uni o'zida aks ettiruvchi ko'zgu vazifasini o'tashda davom etadi. San'at ahli o'z zimmasida qanday ulkan va zalvorli vazifalar turganligini hech qachon unutmasligi lozim.

Oqil ABDUBARNOYEV,
O'zDSMI matbuot kotibi

Onandan xat

Dangasalik qilasan buncha,
Sof vijdoning kuymasmi, o'g'lim.
Qizlar haqida she'rilar yozguncha,
Darsing qilsang bo'lmasmi, o'g'lim.

O'ylamaysan onangni bir bor,
Yuribsan-da, tashvishni ko'rmay.
She'r yozasan dardlar haqida,
Hali o'ttiz yoshga ham to'lmay.

Tong sahardan toki kechgacha,
Otang qirda, olis dalada.
Ketmonidan qo'li qabargan,
Sen xayolchan yurgan pallada.

Dangasalik qilasan buncha,
Sof vijdoning kuymasmi, o'g'lim.
Birov haqida she'rilar yozguncha,
Mehnat qilsang bo'lmasmi, o'g'lim.



Munira RAHIMOVA,
"Kutubxona-axborot faoliyati" ta'lim
yo'nalishi sirtqi 3-bosqich talabasi



Axrorbek INOMJONOV,
"Madaniyat va san'at menejmenti"
ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Shu Vatanga...

Bo'yingizga beqasam to'nlar yarashgan,
Kiygan atlasingizdan ko'zlar qamashgan,
Quyosh ham, oy ham sizni talashgan,
Shu Vatanga xizmat qilgim keladi!

Olislarga ketmang, shu yurt bizniki,
Yangi O'zbekiston-u shu el bizniki,
Berilgan har bitta imkon bizniki,
Shu Vatanga xizmat qilgim keladi!

Buyuk Temuriylardan meros bu Vatan,
Hattoki yulduzlarni tartibga solgan,
Navoiydan shuncha bayt, g'azal qolgan,
Shu Vatanga xizmat qilgim keladi!

Bayram-u, to'ylarning sadosi tinmas,
Yoshlar egallagan marralar ozmas,
Shaharga tenglashgan qishloqlar kammas,
Shu Vatanga xizmat qilgim keladi!

Yurtboshimiz qo'llaydi, madadkor bizga,
Chorlaydi ahil va yakdil bo'lishga,
Men ham so'z beraman sodiq qolishga,
Shu Vatanga xizmat qilgim keladi!



Jamshid UMRZOQOV,
Urganch davlat universiteti
II-bosqich talabasi

Otajon

Bizlar uchun qaygurdiningiz har nafas,
Umringizni bizga fido qildingiz.
Pul, mol, boylik, sizga oddiy bir havas,
Hayotimning qahramoni bo'ldingiz.

Otajonim, sizdan vaqtim qizgonib,
Qaylardagi kimsalarga sarflabman.
Aybim bilmay begonaga yolvorib,
Ko'rakam tog'im obro'sini to'kibman.

Qiyinchilik inson boshida bo'larkan,
Matonatga to'la qalblar kurashar.
Yoningizda faqat ota turar ekan,
Inshaolloh yoshingiz ham yuz oshar!

Qancha-qancha otalar bor bemehr,
O'z farzandin kelajagin o'yamas.
Afsuslanib qolurlar so'ng oxir,
Ular uchun farzand baxti go'yo xas.

Zahmatingiz mevasini ko'rgaysiz,
Der edingiz: "Boram senga ol bolam".
Onam bilan davru davron surgaysiz,
Omon bo'lsin baxtimizga jon otam!



Amriddin SHOMURODOV,
"Madaniyat va san'at menejmenti"
ta'lim yo'nalishi sirtqi 3-bosqich talabasi

Seni sevdim

Soyaman men sening ortingdan yurgan,
Xazonman oyog'ing ostida turgan.
Dengizman sohilga urib ko'pirgan,
Men seni majnundek sevdim, azizam.

Shamolman sochingni mayin silagan,
Yomg'irman tomchidek zulfig' elagan.
Ko'zguman men senga to'yib qaragan,
Men seni majnundek sevdim, azizam.

Ko'zyoshman shu shahlo ko'zingdan tomgan,
Zilolman suv bo'lib labingga qo'ngan.
G'azalman sen meni o'qib quvongan,
Men seni majnundek sevdim, azizam!



Behruz O'TKIRQULOV,
"Madaniyat va san'at muassasalarini
tashkil etish va boshqarish" ta'lim
yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Bir qiz bor

Bir qiz bordir bir muhabbat qarz,
To'lasin visoli bilan aytinlar!
Meni yo'ldan urgan o'sha aybdor,
Qalbiga kishanlar taqib qaytinglar.

Qop-qora ko'zlarin qilinglar tergov,
Aldanib qolmang, lek nigohlariga.
Ishonmang, umuman ishonmang,
O'ziga yon bosgan guvohlariga.

Aldanmang hech shirin so'zlariga,
Anor rangli o'shal dudoqlariga.
Ehtiyyot bo'lingiz sizlar ham tag'in,
Ilinmang men kabi tuzoqlariga

Chorasin topsangiz aytinbiz darhol,
Qarzini undiray, qalbim ko'ndiray.
Sog'inchni men qanday o'ldiray?..
Qalbimga bo'lmasdan biror kor-hol.

Kelsin gunohini yuvmoqlik uchun,
Begunoh muhabbat etmasin qazo.
Hukm qilmam qalbdan quvmoqlik uchun,
Qalbim qamog'ida o'tasin jazo.

Bir qiz bordir mendan bir muhabbat qarz,
To'lasin visoli bilan aytinlar!
Iltimos, xushxabar bilan qaytinglar,
Hech sabab qolmasin qilmoqlikka arz.

— Jasur aka, osongina qirg'oqqa qochib qolibsiz-da... baxt kemamiz cho'kyapti... Endi siz... siz... qirg'oqda meni cho'kishimni kuzatib turarkansizda? — dedi qiz ko'zlari yoshlanib. — Siz u bilan ko'rishgansiz, nega unga vaziyatni tushuntirmadingiz? Demak, u ham sizga yoqibdi-da?!

Qizning ko'zyoshli nigohi yigitga qadaldi. Yigit qanday javob berishni bilmay turganda, qiz endi hech narsa qilib bo'lmagligini anglab:

— Baxtli bo'ling, — dedi-yu, orqasiga qaramay yugurib ketdi.

Bugun osmonni bulut qopladi. Zarina bilan birga motam tutayotgandek, borliq ham qora ridosini egniga ilayotganda birdaniga kuchli shamol jon-jahdi bilan o'kira boshladidi. Bahorning o'talari, hali sovuq chekinishni istamay issiq bilan kun talashayotgandi. Har kuni quyosh charaqlab chiqsa-yu, bugunga kelib bunday o'zgarishdan ko'pchilik tashvishga tushib qoldi. Axir bugun to'y. Jasur uylanyapti. Ammo bu shodiyonadagi odamlarning tushkun kayfiyatiga faqat ob-havo sababchi emasdi. Jasurning buvisi o'zini bilmay yotar, nabirasining nikoh to'yida davraning to'rini to'ldirib o'tirish, duoga qo'l ochish unga nasib qilmagan ko'rindi.

Kuyov kelinnikiga otlangan bir mahal Aloyim momoning joni uzildi. Achinarlisi, hech kim rozilik so'rav vidolashishga ulgurmay qoldi. Birzumda hovliga sovuq epkin urdi. Qizlari, kelinlari uvvos solib yig'lashga tushdi. Jasur karaxt holda ortiga qaytdi-yu, buvisini quchib, ho'ngrab yig'ladi. To'y azaga aylandi.

Zarina erta tongdanoq yuragi xijil bo'la boshladidi. Jasurni shuncha unutishga harakat qilsa-da, tomog'iga achchiq narsa tiralib kelar, undan ayrilganini yurak tan olmasdi hech. Peshonasini muzdek devorga suyab turarkan, shuncha keng dunyoga kichik vujudi sig'mayotgandek his qilardi o'zini. Darvozani lang ochdi-yu yoqimli mayin shabada yuziga urildi. Kimsidir ishga, yana kimsidir o'qishga shoshayapti. U shifoxona derazasidan qovog'i uylgan, osmonga tikilgan holda ko'zlarini ohista yundi. Ko'zlaridan dona-dona durlar to'kila boshladidi. Endigina orqasiga tisarilib krovati sari odimlaganida orqasidan o'ziga tanish bo'lgan ovoz kelgandek bo'ldi. Sapchib tushdi. Orqaga qarashga yuragi betlamay, qotib xona o'tasida turib qoldi. Zum o'tmay xonaga kichik toshchaga o'ralgan xat kelib tushgach, shosha-pisha qo'liga oldi-yu, yuragi dupurlagancha uni ochdi. Va ilkis o'girilgancha deraza osha tashqariga qaradi. Ulkan sog'inchdan so'zlayotgan ko'zlar unga tikilib turardi... Zarina holsizlanib polga yiqildi...

Zarina palatada yotar, yonida esa Jasur unga jilmay qarardi. Uning ko'zlarida iztirob aralash quvonch ham bor edi.

— Siz! — Hayratla tikilib qoldi Zarina.

Jasur unga hech nima demay, lablarini qo'llariga, undan so'ng qizning ko'zyoshlari oqib turgan yuzlariga ohista bosar ekan shivirladi... — Zarina, sensiz yashay olmayman meni kechir.... Endi hech qachon seni tashlab

Boshi o'tgan sonda


ketmayman, ishon!

— Axir siz... — Zarina o'rnidan turarkan, so'zini oxiriga yetkaza olmadi. Jasur uni qattiq qucharkan, qizning boshini ko'ksiga, lablarini esa yoqimli ifor taratib turgan sochlari bosdi.

— Zara, to'y to'xtatildi...

— Voy qanaqasiga?! U hamon karaxt edi... U tush ko'rayotgandek edi go'yo. Jasur ohista so'z boshladi:

— O'sha kun buvum vafot etdi. Bu ahvolda to'y tatiydimi? Hammasi kutilmaganda bo'ldi. G'am-g'ussa bilan bo'lib, bir hafta ham o'tib ketibdi... Nasiba uylanmoqchi bo'lgan qizim. Kimdandir sen bilan munosabatimiz borligini eshitipti. Kimligini menga aytmadidi. Nasiba bilan ishonsang, endigina bir marta chin dildan suhbat qurdidi. U xafa emas, chunki uning ham o'z suyuklisi bor ekan. Ota-onasi ham, Nasiba ham buvimning ra'yiga qarshi bora olmagan va to'ya istar-istamay rozilik berishipti. Nasibaning ham dardi ichida yurgan ekan. Mana taqdirning o'zi hammasini hal qilib berdi. Endi sendan birzum ham ayrlmayman, Zara.



Zarina bir nuqtaga tikilgancha unsiz yig'lay boshladidi. Shahlo ko'zlarini oftob nurlariga tutgancha shivirladi: "O'zingga shukr, Yaratgan Egam! Faqat sendangina najot kutgandim, mo'jizangni ko'rsatding, rahmat!"

Zarina Jasurga jilmaygancha qaradi-yu, yanayam qattiqroq quchog'iga singib ketdi. Ular Nasiba bilan gaplashib, Jasur va Zarina muhabbati haqida aytib bergen Zulxumor ekanligini bilishmasdi.

Tamom.

Qishloqdagagi suyunchi...

Quyosh iliq yuzlarini majnuntol novdalariga siypalagancha asta tebranadi. Anhorning suvlari jo'shib, to'lqinlanib oqadi. Qishloq chetidagi bog'dan esa, qushlarning onda-sonda mayin va sho'x-shodon chug'ur-chug'urlari yangraydi. Atrof musaffo, qandaydir mavj ila sokin shabada anhor bo'ylariga yoyiladi-yu, ajib takrorlanmas hislarni dillarga tugadi. Bog'dagi so'rilarda cho'kka tushib o'tirgan chollar achchiqqina ko'k choyni simirib ichgancha gap qotadi:

— Eshitdingizmi, Mirahmad ota ko'cha-ko'ya har-xil mish-mishlar yurganmish!

— Yo'q, qanday gaplar?

— Tursunboyning bog'da bog'langan sigirini, Abdurahimning darvoza yonginasida turgan velosipedini o'g'rilab, olib ketganmish. Surishtirsa daragi topilar degandim, bo'lmayabdi, ish chatoq — deydi Tursunboy.

— Ha, bunday holatlар bizning yoshligimizda bo'lmagan edi. Hozirda negadir ko'ngilni

xira qiluvchi bu kabi voqealar bo'lyabdi, hayronman.

— Hasanboy, hozirgi odamlarning nafsi och, agarda, nafsi to'q bo'lganda edi, bunday o'g'riliklar bo'lmasdi.

— Ha-a-a, o'g'ri bo'l, ochko'z bo'l — insof bilan bo'lda nomard. Kelib-kelib shu bechoralarning sigrini, velosipedini olasanmi?

— Men ham shuni aytaman-da, vijdonsizlar or-nomus qolmayabdi bularda, Eh, erak kishidagi mardlik, shijoat qayerga ketdi?!

Qachon qarasang, kartabozlik, bekorchilik orqasidan ulfatchilik. Barchasi g'irt tubansizlik — deydi, Hasanboy ota o'zicha. Atrofda shunchaki yashab, bu hayotning lazzatidan baha olaman deb, yovuzlik botqog'iga botayotgan kimsalarning taqdiriga achinadi. Shu payt bog' etagidan Tursunboyning o'zi kelib qoldi.

— Hasanboy ota, Mirahmad ota suyunchi beringlar! Sigirim topildi, qo'shni qishloqqa sayr qilgani ketib qolgan ekan, — deya hangoma qilib, kulib-kulib gapirar, Hasanboy ota esa, yuragini ushlagancha — Yaratganga shukur qilardi.

Keksalar keyin bilishicha, sigir tunda ipini uzib, "sayr"ga otlangan, qushxonadan qaytayotgan Samandar qassob darvoza yonginasida turgan Abdurahimning velosipedini minib, sigirning ortidan topish uchun ketgan ekan...

Hasanboy ota erta tongda turib, fotiha qilib, choyxonaga ketarkan, o'yadi: "Gumon — iymondan ayiradi. Haqdan kelgan bo'lsa, haqqa ketadi. Zero, sutniki — sutga, suvniki — suvga".



Mitti hikoyalari

KECHIKISH

— Eh, qachon shu ishlardan bo'shayman-a, bo'ldi bas, besh yildan beri onamni o'zlarini orzu qilganidek hajga olib boraman deymanu bahonalar bilan qoldiraveraman. Endi jiddiy kirishmasam bo'lmaydi.

U shunday degancha, kompyuterga tikildi, ishlarni tartibga keltirgunicha yana yodidan ko'tarildi.

Oradan bir oy o'tib u rostdan ham onasini suyuntirish uchun yo'lga chiqdi. Qishloqqa yetib kelishi bilan uni tumonat odam kutib turar edi. U onasini so'nggi manzilga kuzatib qo'ydi...

QARG'ISH

Uning gunohi ko'p edi. Eng dahshatlisi u o'n olti yoshga to'lmay ona bo'ldi. Ammo uning hayotidagi katta xatosi bir oilani buzdi. Uning onasi sodda, qishloq hayotiga moslashgan. Qiz esa bir marta onasiga qo'l ko'tardi.

Ona uni kechirmadi. U turshaklarni quritish uchun tomga chiqdi-yu, narvonning siniq pog'onasiga oyoq qo'ydi va o'zini yerda ko'rди. Uning chap ko'zi ko'rmay qoldi. Bir qo'li ishlamaydi. Bir o'zi hayotidan xafa bo'lib eskirib to'kilib tushay degan xammomda yuvinar ekan, ro'parasida turgan ko'zguda aksini ko'rdi-yu qichqirib yubordi. Uning butun badanini oq dog'lar bosib ketgandi.

**Zilolabonus XOLIQOVA,
"Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish va boshqarish"
ta'lim yo'nalishi
4-bosqich talabasi**



**Izzatilla OLIMOV,
"Kutubxona-axborot faoliyati"
ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi**



“Alisher Navoiy” spektaklida Mo‘min Mirzo obrazini o‘zgacha bir talqinda yaratgan, keyinchalik esa Husayn Boyqaro rolini maromiga yetkazib ijro etgan, shuningdek, “Behbudiy” tarixiy filmida qizil askar, “O‘ch” videofilmida Botir, “Yodgor”da Xurshid, “Haqiqiy erkaklar ovi” da Akbar, “Tutash taqdirlar”da Rustam kabi rollari bilan tomoshabinlarga o‘zgacha zavq hamda ajib bir mehr ularshgan ijodkor, O‘zbek Milliy Akademik drama teatri san’atkori, O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan artist Mehriddin RAHMATOV tahririyatimiz mehmoni.

ARTYOR – qalb shifokori

– Insonning beg‘ubor, shirin lahzalari yoshlik davrida kechadi, deyishadi. Bolalik xotiralaringiz haqida to‘xtalsangiz?

— Haqiqatan ham bolalik juda shirin va har bir insonning xotirasida yaxshilik bilan qoladigan, go‘zal, beg‘ubor davr hisoblanadi. Qachonki, yoshlik, bolalik paytalarim yodimga tushar ekan, eng avvalo, o‘zining halol mehnati bilan farzandlarini voyaga yetkazgan otanomning yorqin chehrasi ko‘z o‘ngimda namoyon bo‘ladi. Ular oilamiz tanovul qilayotgan har bir luqmani mashaqqatlari mehnatlari evaziga, peshona teri bilan topadigan insonlar edi. Qolaversa, Buxoro viloyatining go‘zal tabiatni, hosildor tuprog‘i, zilol suvlari, qalbi pok, niyati toza odamlari ko‘z oldimda gavdalanadi. Yoz fasilda mevalar g‘arq pishgan mahalda tengdosh do‘stlarim bilan ularni uzbib tanovul qillardik. Futbol, voleybol, basketbol, quvlashmachoq hamda milliy urf-odatlarimizni o‘zida mujassamlashtirgan xalq o‘yinlarini o‘ynardik. Hozirgi kunda ham ana shu beg‘uborlik tuyg‘ulari bilan yashayapman. Balki san‘at sohasiga kirib kelishimga tug‘ilib o‘sigan go‘shamning ham ahamiyati katta bo‘lgandir.

– Ijodkor bo‘lib shakllanishingizga sabab bo‘lgan omillar haqida aytib o‘tsangiz. Oila a‘zolaringiz orasida ham san‘at kishilar bo‘lganmi?

— Nafaqat oilamda, balki qarindoshurug‘larim, yaqinlarimning orasida ham san‘at sohasi vakillari bo‘laman. Ularning barchasi boshqa sohalarda mehnat qilishadi. Ammo ota-onam san‘atni qadrashgan. Ustozlarimiz tomonidan ijro etilgan “Kelinlar qo‘zg‘oloni”, “Suyunchi”, “Maftuningman” singari kino va spektakllarni onam juda mehr bilan tomosha qilar edi. O‘sha filmlarda ishtirok etayotgan aktyor, aktrisalarga hurmati yuqoriligini, ularning ijodiga, ijrosiga befarq emasligini aytardi. Mendagi qobiliyat maktab davrida rivojlandi. Iste‘dodimning yanada o‘sib borishida “ona tili va adabiyoti” fanidan saboq bergan ustozim Shodiya Safarova hamda tarix fani o‘qituvchisi Ikrom Zayniyevning xizmatlari katta bo‘lgan.

Ta‘lim maskanimizda turli ijodiy kechalar, adabiy uchrashuvlar tez-tez o‘tkazilar edi. Men esa bu kabi tadbirdarda faol qatnashardim. Muntazam ishtirok etib, sahnalashtirilgan spektakllarda har xil rollarni ijro etardim. She‘r va g‘azallar aytardim. Ayniqsa, she‘rlar o‘qishni nihoyatda yaxshi ko‘rganman. Adabiyotga, tarix faniga mehr qo‘yanman. San‘atkor bo‘lib, o‘z ishimga juda katta mas‘uliyat bilan qarash kerakligini anglaganman. O‘zbekiston davlat san‘at instituti talabasi bo‘lganimdan keyin, Ulug‘bek Zufarov qo‘lida to‘rt yil davomida tahsil oldim. O‘zbek Milliy akademik drama teatri sahnasi ham men uchun katta maktab vazifasini bajargan. 2003-yildan buyon ushbu dargohda faoliyat olib boraman. Ustozlarimiz sohaning yetuk vakillari spektakl, kinolardagi rollarimni ko‘rib

yaxshi baho berishgan. O‘zbekiston xalq artisti Erkin Komilovning maslahatlariga, nasihatlariga hamisha qulq tutaman. O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan artist rahmatli ustoz san‘atkori Jamshid Zokirovning ko‘rsatgan yo‘l-yo‘rig‘larini, yaxshiliklarini hech qachon unutmayman. Mana shunday insonlarning sa‘y-harakatlari bilan aktyor qalb shifokori, qalb muhandisi, qalb musavviri bo‘lishi kerakligini, film yoki spektakldagi muammolardan, fojalardan chinakamiga kuyunadigan, yutuqlaridan suyunadigan inson bo‘lishi lozimligini anglaganman.

– Endi, o‘zingiz yosh ijodkorlarga qanday maslahatlar berasisz?

— Yoshlarimizga yaratilgan shart-sharoitlar ko‘zni quvnatadi. Mana shunday imkoniyatlardan unumli foydalangan holda tinmay o‘qib, izlanishlari kerak. San‘at sohasining sir-asrorlarini mukammal darajada o‘zlashtirishga harakat qilishsin. Adabiyotga, she‘riyatga oshno bo‘lishsin. Mamlakatimizning shonli kechmishini o‘rganishsin. Jangu-jadallarni jangovar san‘at darajasiga olib chiqqan jasur

rollarni o‘ynasam, tomoshabin yomon ko‘rib qoladi, degan fikrdan yiroq bo‘lishi lozim.

– Avtomobil boshqarishni qachon o‘rgangansiz?

— Bizning sohamizda avtomobil boshqarishni, ot minishni, suvda suzishni bilish juda muhim vazifa hisoblanadi. Shu bois, suratga olish jarayonlarida avtomashina haydashimga to‘g‘ri kelgan. Ammo o‘sha paytlarda bu ishni uddalashim ancha qiyin kechgan. 2005-yilda avtoulov xarid qilganman. Keyin avtomaktabda o‘qib, malakali va mahoratlari o‘qituvchi-pedagoglardan yo‘l qoidalarini va haydash amaliyotini mukammal darajada o‘rgandim. O‘sha davrda svetofor ishoralarini, qatnov qismidagi chiziqlar va yo‘l belgilari, umuman olganda, yo‘l qoidalarini mukammal darajada o‘zlashtirishga harakat qilganman. Bu boroda menga ustozlik qilgan kishi yo‘l harakati qoidalarini bilish va unga amal qilish, haydovchining o‘zi boshqarayotgan avtomobilini tushunishining afzalliklari haqida to‘xtalib, mashina mexanizmlari to‘g‘risida keng qamrovli tushunchalar




sarkardalarimizning tarixini, yillar, asrlar o‘tsada, mudom yashab kelayotgan, zamon va makon, til va millat bilmaydigan, juda ko‘plab avlodlarni voyaga yetkazgan mumtoz asarlarni qunt bilan o‘qishsin. Faqat ijobji rollarni yaxshi ko‘raman, salbiy

bergan. Mashinani o‘nqir-cho’nqir joylarda boshqarish, katta tezlikda ketayotgan mashinani zudlik bilan to‘xtatish, avtoulovni tepalikka chiqib, tushishi, qiya joylarda to‘xtatish sir-asrorlarini o‘rgatgan. Shuningdek, haydovchi madaniyati, uning o‘z huquqlarini bilishining ahamiyati haqida foydali, bir-biridan qiziqarli dars saboqlaridan bahramand bo‘lganmiz. 2006-yildan avtomashinani mustaqil hamda mukammal boshqaryapman.

– Svetofor ishoralariga, qatnov qismidagi chiziqlar va yo‘l belgilariiga, transportlar harakatini tartibga solib turuvchi YHX xodimlarining ko‘rsatmalariga amal qilasizmi?

— Avtomashina boshqarib yurganimda, yo‘l belgilariiga, transportlar harakatini tartibga solib turuvchi YHX xodimlarining ko‘rsatmalariga hamisha amal qilaman. Chunki ular insondan doimo hushyor va sergak bo‘lishni talab etadi. Serqatnov chorrahaldagi avtomashinalar tirbandligiga tushib qolsam ham sabr-toqat bilan kutaman. “Asabiy signallar”ga e’tibor bermayman. Boshqalardan tezroq o‘tib ketishga harakat qilishning va to‘xtovsiz



darajada asabiylashishning foydasidan ko‘ra, zararli tomonlari ko‘pligini juda yaxshi bilaman. Ammo bir kuni shoshilinch ravishda yo‘lga chiqqanim tufayli bexosdan ta‘qilangan hududga avtomashinamni qoldirib ketganman. Shunda YPX xodimi kelib, xatti-harakatimni mohiyati haqida tushuntirish ishlarini amalga oshirgan. Har ikkimiz ham bir-birimizni juda yaxshi tushunganmiz. Eng muhimi, haydovchi o‘zi hamda boshqalarning hayotiga xavf soluvchi har qanday holatlardan tiyilishi kerakligini yana bir karra anglaganman. Unutmaslik kerakki, yo‘l-transport hodisalarini, avvalo, ayrim haydovchilarning yo‘l harakati qoidalarini yaxshi bilmasligi, unga qat‘iy amal qilmasligi, texnik nosoz transport vositalaridan foydalaniши natijasida sodir bo‘lmoqda. Shu bois, yo‘l qoidalarini va ularga amal qilishni farzandlarimga yoshligidan o‘rgatib kelyapman.

– Yurtdoshlarimizga hamda muxlislarining tilaklarining?

— Vatanimiz doimo tinch bo‘lsin, yurtdoshlarimiz, muxlislarimiz ko‘nglini xotirjamlik aslo tark etmasin. Ularning yuzlaridan kulgi, chehrasidan tabassum arimasin. Elimizga, yurtimzga, musaffo osmonimizga ko‘z tegmasin. Har bir kunimiz bayramlarga, tantalarga ulansin. San‘at ahli esa xalqning yaxshi kunlarida xizmatda bo‘lib, ularni xushnud etib yuraversin. Bu hayotda hech kimning armoni bo‘lmasin. Sodda, ko‘ngli toza xalqimizning qalbidagi barcha ezgu orzular ijobat bo‘lavserin.

Yoshlarimiz yangi bilimlarni egallahga intilaversin, ota-onasining duosini olib, ularning o‘gitlariga amal qilishsin. Halol mehnat va sabr bilan ko‘plab yutuqlarni qo‘lga kiritishsin. Fugarolarimiz avtomashina boshqaruvida belgilangan tezlik talablariga qat‘iy rioya qilib, oraliq masofalarni xavfsizlik darajasida ushlashni yodidan chiqarishmasin. Spiriti ichimliklarni iste’mol qilgan holda avtoulovni boshqarmasin.

Yo‘lingiz hamisha ravon, hayotingiz farovon bo‘lsin. Barchangizga uzoq umr, mustahkam sog‘lik, tinchlik-xotirjamlik, ezgu orzularingiz ijobat bo‘lishini tilayman.

– Mazmunli suhbatning uchun rahmat! Kelgusidagi ijodingizga omad tilagan holda, kino va teatrda yanada yuksak marralarni qo‘lga kiritishingizga tilakdoshmiz!

Anvar QOBILOV suhbatlashdi.

Liderlik nima?



Lider! Bu tushunchani anglash uchun mashhur yozuvchi Jon Maksvelning “Buyuk rahbarning o‘z maqsadlarini amalga oshirishdagi jasorati mavqeidan emas, balki ishtiyoqidan kelib chiqadi”, degan so‘zlarini keltirish joiz. Binobarin, haqiqiy yetakchilik unvon yoki lavozimining bo‘lmasa ham kishilarni ixtiyoriy ravishda o‘zingizga ergashtirish va shu yo‘sinda maqsadlaringizga erishishdir!

Insoniyat yaralibdiki, boshqaruv tushunchasi ham asrlar davomida ijtimoiy-siyosiy hayotning ajralmas qismi sifatida o‘z ta’sir kuchini ko’rsatib kelmoqda. Bugun liderlikning rasman rahbarlik tushunchasidan farqi ko’pchilik tomonidan bot-bot ta’kidlanmoqda, ularni rad etmagan holda yana shuni qo’shimcha qilish mumkinki, liderlik yosh va mansab chegarasi, ma’lum muddatlik tajriba hamda diplom talab qilmaydi! Liderlik bu shunchaki – yetakchilik! Yetakchilikka erishguncha o‘z ustingizda ishlasangiz, unga erishgach nafaqat o‘zingiz, balki yetaklagan jamoangiz ustida ham ishlashtirish, ularni-da o’stirishingiz kerak bo‘ladi. Liderlik kategoriyalarini 3 qismga bo‘lgan holda o‘z fikrlarimni bayon etmoqchiman.

Birinchidan, har qanday shaxsning qilgan amallari bilan birgalikda notiqlik qobiliyati ham yetakchilikka olib chiqadigan asosiy qurol bo‘lib xizmat qiladi. Notiqlikni yillar davomida shakllantirib borish, shu bilan birgalikda ulug’ bir donishmandning “ovozingizni emas, so‘zlariningizni balandlating”, degan purma’nio so‘zlarini unutmashlik lozim. Ma’nosiz so‘z qanchalik baland va chiroyli ovozda aytilmasin, ta’sir kuchi bo‘lmasligi tayin, ustiga ustak quloqni og’ritgani qoladi. Bugun ham jamiyatimiz mana shunday “notiq”larning balandparvoz gaplaridan aziyat chekmoqda. Haqiqiy lider “so‘z bo‘stonidan terilgan alvon gullar”dan ko‘ra “haqiqat sahrosidan yulungan yantoq” afzalligini biladi va uni ham malham, ham yegulik, ham

E’zoza KARIMOVA

O’zDSMI “Madaniyat va san’at muassasalarini tashril etish va boshqarish ta’lim yo‘nalishi” 4-bosqich talabasi

o’tin sifatida ishlata oladi. Dunyo so‘z bilan yaralgan ekan, demak, uning o’rnii yuksakda va har qanday holatda ham do’stona, samimiyyat ilo so‘zlash, eng muhim haqiqatparvar bo‘lish buyuklar tabiatiga xosdir.

Ikkinci kategoriyanı esa, jasorat, deb nomlangan bo‘lardim. Jasorat kishilarning har bir harakatini boshqaradi va uning asosida qiyinchiliklardan qo‘rmaslik, xatolar uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga olish va ulardan xulosa chiqarish kabi fazilatlar yotadi. O‘rganishga bo‘lgan ishtiyoq har bir insонning shaxsiy kamolotiga ulkan hissa qo‘shadi. Liderning yo‘qotishdan qo‘rqadigan lavozimi yo‘q va u mavqega erishish uchun emas, maqsadga erishish uchun ishlaydi. Aynan jasorat yetishmasligi ortidan, egallab turgan lavozimidan ayrilib qolishdan qo‘rqib, jamoani olg‘a yurgizish o‘rniga uni siljitisiga ham harakat qilmaydigan, hatto orqaga tortadigan rahbarni haqiqiy lider, deyish mumkinmi axir?!

Nabvatdagi, uchinchi muhim jihat – hissiyot ! Bugungacha dunyoning eng ilg‘or liderlarida shakllangan yumorga ustalik, jamoani his qilish, munosabatlar jarayonidagi emotsiyalar, kechirimlilik, ilhomlanish va ilhomlantira olish kabi sifatlar ularning ustunligini ta’minlab bergen. Asl insoniy hissiyotlarga ega sardorgina mardlik bilan do’st yoki raqibning haqligini tan oladi – o‘z yo‘lidan emas, haqiqat yo‘lidan yuradi! Tashqaridan kuchli va dadil insonga mehribonlik fazilati yarashmaydigandek ko‘rinsada, aslida esa jamoadoshlar liderdan mehr ko‘rishni xohlashadi. Va bu mehr o‘z navbatida qo’llab-quvvatlash, ruhlantirish va hazil-mutoyibaga boy jarayonlar orqali egalariga yetkaziladi.

Xulosa o‘rnida aytish joizki, haqiqiy liderlar o‘z-o‘zidan paydo bo‘lib qolmaydi, ularni davr va vaziyatning o‘zi kashf etadi. O‘ylashimcha, insonlar omadsiz boshliqlarning hafsalani pir qiladigan ishlariga allaqachon ko‘nikishgan va oxir-oqibat bu ularga og‘ir botmay qo‘ydi. Chunki ular qaysidir burchakdan, o‘zlarining orasidan haqiqiy lider chiqib kelishiga ishonishadi va ana shu liderga tasavvurlaridagi narsalarni amalga oshiruvchi kishi sifatida umid bog‘lashgan. Demakki, boshqalarni muvaffaqiyat tomon yo‘naltirar ekan, lider – har bir va’da uchun javobgar!



KUTUBXONA – ma’naviyat maskani

Xorazm viloyati hokimligining 2019-yil 16-iyul 498-sonli qaroriga asosan, viloyat axborot-kutubxona markaziga Mahmud az-Zamaxshariy nomi berildi va kutubxona Mahmud az-Zamaxshariy nomidagi Xorazm viloyati axborot-kutubxona markazi deb yuritila boshlandi. Viloyat axborot-kutubxona markaziga Sharqning ulug’ allomasi, Xorazm farzandi Mahmud az-Zamaxshariy nomi berilishi ham bejiz emas.

**Izzatjon MATSAPAYEVA,
Kutubxona-axborot faoliyati 3-bosqich rus guruhi talabasi**

Mahmud az-Zamaxshariy qoldirgan ulkan merosni to’plash, targ‘ib qilish ishlariga ham asosiy e’tibor qaratilayotir. Dunyoning turli nufuzli kutubxonalarida saqlanayotganm “Muqaddimat ul-adab”, “Al-Kashshof” kabi yigirmadan ortiq qo‘lyozmalarining

eng mo’tabar nusxalari elektron shaklda olinib, ularni asliga yaqinlashtirilgan nusxalari yaratildi va bu kitoblar hozir kutubxonaning Mahmud az-Zamaxshariy zalida ham eksponat, ham foydalinish uchun joylashtirilgan. Qolaversa, Mahmud az-Zamaxshariy

merosini joylashtirish uchun yagona elektron baza ham yaratilgan. Endi Respublikamizning istagan burchagida istiqomat qiluvchi kishi bu bazadan masofadan turib foydalanish imkoniga ega bo‘lgan.

Viloyat axborot-kutubxona markazi viloyatimizda uslubiy markaz hisoblanib, axborot resurs markazlari va kutubxonalarga amaliy va uslubiy yordam ko’rsatadi. Bugungi kunda viloyatda 631 ta axborot-kutubxona muassasalari mavjud bulib, shu jumladan: viloyat aholisiga 1 ta viloyat AKM, 11 ta shahar va tuman kutubxona markazlari, viloyat kasb-hunar kollej va texnikumlar 38 ta axborot-resurs markazi, viloyat xalq ta’limi boshqarmasiga qarashli 1 ta viloyat bolalar kutubxonasasi, 543 ta maktab kutubxonalari, viloyat oliygoh ta’limiga qarashli ta axborot-resurs markazlari hamda Mudofaa Vazirligiga qarashli 9 ta harbiy kutubxona, Sog‘liqni saqlash boshqarmasiga qarashli 1 ta tibbiyot kutubxonasi, 11ta Ko‘zi ojizlar kutubxonalari, 10 ta boshqa kutubxonalar xizmat ko’rsatib kelmoqda.

Axborot-kutubxona markazida 2019–2020-yillarda qayta ta’mirlash ishlari olib borildi. Bugungi kunda kitobxonlar uchun yorug’ va shinam, zamonaviy andazada xizmat ko’rsatayotgan markazda 70 ta kompyuter, 8 ta printer, 5 ta skaner, 4 ta nusxa ko‘paytirish apparati, raqamli fotoapparat, INTERNET va mahalliy kompyuter tarmog‘i ishlab turibdi.

Viloyat AKM axborot-kutubxona fondlarini jamlash xizmatiga ajratilgan mablag’larni samarali ravishda sharhoma asosida Urganch va Xiva shahrida joylashgan kitob do’konlaridan foydalanim kelimoqda. Shulardan tashqari viloyatimizdagi yozuvchilar, shoirlar, kutubxona foydalanuvchilar

tomonidan hadya qilingan kitoblar, Urganch davlat universitet bosmaxonasi, “Xorazm nashriyoti”, “Xorazm yoshlari” va “Ogahi nashriyoti” tomonidan “majburiy nusxa” kitoblar bilan muntazam ravishda AKM jamg’armasi to’Idirilib borilmokda. AKMning hozirgi kunda kitob jamg’armasi 614830 nusxaga yetdi, 2780 nusxada kitob, 151 elektron disk, 27 nom, 130 nusxada jurnallar mavjud. Markazda bir vaqtning o‘zida an’anaviy va elektron kataloglari bibliografik ma’lumotlar bilan to’Idirilmoxda.

Kutubxonalar axborot-kutubxona xizmati ko’rsatish orqali kitobxonlarning dunyoqarashini takomillashtirishi, hayotni to’g’ri tasavvur etishga, siyosatda, fan-tehnika, badiiy ijodiyotda, barcha amaliy faoliyatda ishchonchli yo‘l ko’rsatuvchi, maslahat beruvchi vazifasini bajarishi kerak. Hozirda kutubxonalarining asosiy vazifalaridan yana biri iste’molchilarga, insonning o‘zaro munosabatlari, umuminsoniylik tuyg’ulari o‘zaro yordam, to’g’rilik, halollik, kamtarlik, mehribonlini targ‘ib etuvchi adabiyotlar targ‘ibotini amalga oshirishdir.

Insонning dunyoqarashi shakllanishida turli bilim sohalarini o‘zlashtirganlik alohida ahamiyatga ega. Turli bilim sohalaridan xabardon bo‘lishi kitobxonni tabiatga va atrof muhitga, o‘zi yashayotgan jamiyatga, odamlarga va boshqalarga ijobji munosabatini shakllantiradi. Markazda aholi va yoshlar o‘rtasida ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar, ko‘rik tanlovlari, viktorinalar, adabiyot kechalari, siyosiy-ijtimoiy uchrashuvlar, shuningdek, mashhurlar bilan uchrashuvlar tashkilashtiriladi. AKMDa yosh bolali foydalanuvchilar uchun bolalar xonasi va “O‘qituvchi” kitob sotish shahobchasi mavjud. Kutubxonaga kelayotgan foydalanuvchilar axborot-kutubxona xizmatlaridan mamnun bo‘lmoqdalar.

Hikmat

OMONATGA XIYONAT QILMAYLIK



TOHIR MALIK

Qalb – Allohnning omonati. Uni Egasiga qay holda qaytaramiz?

Qo'shnidan omonatga bir kosa olsak, ishlatib bo'lгach, yuvib, pokiza holda qaytaramiz.

Qalb vazifasini o'tab bo'lгach, uni pokizalashga imkonimiz bo'lmaydi. Ortimizda qolayotgan yaqinlarimiz ham tozalab bera olishmaydi. Uni poklashni oldinroq o'yashimiz kerak... Uni turli illatlar bilan bulg'ammaslik chorasini ko'rsak, yanada afzalroq.

Eski bir jomga to'plangan axlatni birov boshqa birovga hadya etmaydi. Agar qalbni g'azab, riyo, hirs, ochko'zlik, hasad, g'iybat kabi illatlardan muhofaza qilmasak, u o'sha axlat to'la jomga o'xshab qoladi.

AQSh dollarari tariхiga qisqa nazar

Dollar so'zi o'rta asrlarda dastlab 1519-yilda Germaniyada paydo bo'lган tanga nomi "Taller" dan kelib chiqqan. 1873-yilda taller Germaniyada butunlay muomaladan chiqib ketdi. Uning o'rнига marka kirib keldi. Biroq uning nomi xalq orasida qolib ketdi. Shu paytlarlarda Angliya va Ispaniya koloniyalarda peso nomi bilan mashhur bo'lган ispan tangalari muomalada bo'lган. Bu tangalarni ko'п joylarda adashgan holda "dalar" deb atashar edi. Bizga mashhur bo'lган dollar nomi ham uning dunyoga mashhur belgisi dollar ham o'sha paytda paydo bo'lган. Uzun inglizcha ibora "Piece of Eight", ya'ni 1/8 (nimchorak) qog'ozda o'chirilgan 8 ga aylanib, oxir-oqibat bizga tanish bo'lган dollar belgisi paydo bo'lган.

**Pirmuhammad XOLMAXMATOV,
O'z DSMI 2-bosqich "Madaniyatshunoslik"
mutaxassisligi magistranti**

1879-yilda AQSh hukumati davlatning rasmiy valyutasini muomalaga kiritish chog'ida unga hech ikkilanmay hammaga ma'lum va mashhur bo'lган dollar nomini tanlashadi. O'sha paytda mashhur shaxslardan biri T.Jefferson "Yangi Amerika o'zining yangi puliga juda eski nom tanladi", – degan edi. 1792-yilda muomalada bo'lган AQSh pulining tarkibidagi sof oltin miqdori 1,6033 gramm yoki 24,057 gramm sof kumushdan tarkib topgan edi. 1876-yilda mazkur oltin tangalar davlatning rasmiy pul birligi sifatida tan olingandan so'ng uning tarkibidagi sof oltin miqdori 1,50463 gramm qilib belgilandi. Bu miqdor – AQShda yana 30 yil, 1929-1933-yillardagi jahon iqtisodiy tanazzuligacha amalda bo'ldi.

Shu tarzda qabul qilingan "Oltin zaxirası" haqidagi hujjatga binoan, tillo miqdori 0,88867 grammga, ya'ni 41 foizga tushirildi. Shu paytda Troya unsiyasining narxi 35 dollar edi. Ikkinci jahon urushidan keyin AQSh dunyodagi hukmronligini mustahkamlanishi bilan dollarning dunyodagi o'rni ham asta-sekin bilinib bordi. Marshal shartnomasiga asosan, vayrona holga kelgan Yevropaga AQSh investitsiyasi bilan birgalikda dollarning yirik oqimi ham kirib kela boshladi. Urush tufayli achinarli ahvolga tushib qolgan Yevropada dollarning keng iste'molga kirishi qiyin kechmadi. Shu paytda

Yevropaning markazi banklarida dollarni istalgan Yevropa davlati pul birligiga yoki kelishilgan miqdordagi oltinga almashtirib olish mumkin edi. Biroq XX asrning 60-yillari o'rtalariga kelib, dollarning qadri tushib keta boshladi. Inflyatsiyaning o'sishi va AQSh savdo balansidagi tanqislik navbatdagi dollar devalvatsiyasini keltirib chiqardi. 1971-yilning oxirida oltinning

Ko'plab davlatlarning norasmiy pullariga aylanib qoldi. Oxirgi yillarda esa Janubiy Amerika davlatlarining ko'pchiligidagi dollar asosiy pul o'mida qo'llanilmoqda.

AQShdan boshqa yana 26 davlat pul birligi dollar nomi bilan yuritiladi. Zamonaviy "dollarchi" davlatlarning katta qismi Britaniya imperiyasidan mustaqil bo'lqandan so'ng qabul qilishgan. 1857-yilda Kanada Britaniya koloniyasidan dominoniga aylangan vaqtidan boshlab, bu davlatning rasmiy pul birligiga aylandi. Shuning uchun ham hozirgi paytda zamonaviy Kanada banknotlarida ham Britaniya qirolichasi Yelizaveta II-ni portreti aks etgan. Oxirgi muomalaga kiritilgan dollarlardan biri – bu Singapur dollaridir. 1967-yilda keng muomalaga kiritilgan ushbu banknotlar qushlar, kemalar, gullar va boshqa narsalar bilan bezatilgan. Bu pul dunyo pullari ichida ham eng chiroyli bo'lishiga da'vogarlik qiladi. Lekin zamonaviy AQSh dollarari esa



bir unsiyasi 38 dollarga chiqdi. Dollarning tarkibidagi oltin miqdori esa umuman to'xtatildi. 1973-yil yana 10 Singapur dollariga devalvatsiya qilindi. 1974-yilning fevraliga kelib, oltinning bir unsiyasi dunyoning yirik birjalarida 150 dollarga ko'tarildi. Hozirgi kunda bu ko'rsatkich 260 dollarni tashkil etadi. 100 yil mobaynida dollar 10 barobar arzonlashdi. Ammo oltin standartidan voz kechilgan paytda dollar yer yuzining ko'pchilik aholisini ishonchini qozongan edi.

hamon XX asr boshidagi tasvirini o'zgartirganicha yo'q. Old qismi kulrang, orqasi yashil. Barcha banknotlar bir xil o'chamda (157x67 mm).

XX asr oxiriga kelib, pul qalbakilashtirish avjiga chiqqan paytda dollarning sodda ko'rinishi davr talabiga javob berolmay qoldi. Yaqin-yaqingacha pulni qalbakilashtirish juda oson edi. 1996-yilda chiqqan dollarning yangi nusxasi firibgarlar uchun jiddiy sinov bo'ldi.

Muassis:

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

Bosh muharrir

Ma'rufjon YO'L DOSHEV

Tahrir hay'ati:
Sobirjon JUMAYEV
Hamdam ISMOILOV

Mas'ul kotib:
Ozoda SHOBİLOLOVA

Muharrir:
Dilnoza QURBONOVA

Tahririyat manzili: 100164 Toshkent shahri,
Mirzo Ulug'bek tumani,
Yalang'och mavzesi, 127 A yu.
Telefon: (71) 230-28-03.
(71) 230-28-13.

Sahifalovchi:
Abdug'ani SODIQOV

www.dsni.uz;
nashriyot@dsni.uz



An'anaga ko'ra O'zbekiston Badiiy akademiyasi Markaziy ko'rgazmalar zalida Badiiy ko'rgazmalar direksiysi va shaxsiy kolleksiyalardan olingan O'zbekiston san'at ustalarini asarlarining retrospektiv ko'rgazmasi ochildi.

Hasan ABDUNAZAROV

"Bizning meros" turkumidagi ushbu ko'rgazma O'zbekiston grafika ustalarining 2023-yilgi yubilyarlariga bag'ishlangan. Bular taniqli rassomlar: bu yil 95 yoshga to'lgan grafik rassom Arnold Pavlovich Gan, 100 yoshga to'lgan rassomlar Boris Vasilyevich Kotlov va Anatoliy Kuzmich Osheyko.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi Arnold Gan – ko'plab monumental obyektlar – mozaikalar, freskalar, devoriy suratlar va relyeflarning muallifi va hammullifi bo'lgan. Kosmonavtlar metrosi bekti, Alisher Navoiy nomidagi san'at saroyi foyesidagi devoriy surat ("Panorama") va boshqalar.

Uning rangtasvir asarlari O'zbekiston Milliy banki galereyasi va Londondagi "Zamon" galereyasi kolleksiyalariga kiritilgan.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi Boris Kotlov rangtasvirchi, grafik va bezakchi rassom. U mamlakatimizda ko'plab safarda bo'lib, taassurotlarini, manzaralar turkumida, naturadan ishlab ijod namunalarida aks ettirgan. Ular ekspozitsiyada namoyish qilinmoqda. U O'zbekiston Ichki ishlar vazirligi huzuridagi rassomlik studiyasi asoschilaridan biri. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, Ikkinci jahon urushi qatnashchisi, Anatoliy Osheyko O'zbekistonning ko'plab nashrлarida, rassom, badiiy muharrir. Respublika Badiiy jamg'armasi boshqaruvni raisi lavozimlarida ishlagan. Uning "O'zbek she'riyati antologiyasi", "O'zbekiston xalqlari tarixi", Alisher Navoiy, A.Pushkin, M.Gorkiy, Muqimiy, Furqat, A.Qahhor, S.Borodin kitoblarini bezatishda qatnashgan. Uning eskitiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi davlat bayrog'i tasdiqlangan.

Ko'rgazmada uning ijodi ishlaridan namunalar qo'yilgan.

Ekspozitsiyada taqdim etilgan asarlar orasida plener eskizlari, grofurlar, chizmalar, ko'plab eskizlar san'at muxlislarini rassomlarning ijodli labaratoriysi bilan tanishish imkoniyatini beradi.

Ekspozitsiyadagi ijod namunalari, ijodkorlarning faoliyati hayotimiz tariximizni yanada kengroq tushunishga yordam beradi.

SABOQ

Gazeta o'qish
inson umrini
uzaytiradi.
AQShdagи Rochester
shtati (Minessota
shtati) joylashgan
Mayo Clinic olimlari
tomonidan shunday
maslahat berildi.
Ma'lum bo'lishicha,
immun tizimining turli kasalliklarga qarshi turish
qobiliyati bevosita odamning kayfiyatiga va uning
atrofidagi dunyoga bo'lgan munosabatiga bog'liq ekan.



Tadqiqotchilarining qiziqarli maslahatlari kelgusi yilda Britaniyada nashr etiladigan "O'z hayotingizga qanday qilib qoshimcha yillarni qoshish mumkin?" kitobiga kiritilgan.

Olib borilgan tadqiqotlar shuni isbotlaydiki, gazeta mutolaa qilish, muzeylarga borish, krossvord yechish kabi aqliy faoliyat faolligini talab etadigan mashg'ulotlar inson hayotining davomiyligini sezilarli oshiradi. Shu bilan birga, qarilik chog'ida "Alsgeymer" kasalligi rivojlanish xavfi ikki barobar kamayadi.

O'cham – A3, hajmi 4 bosma taboq.
Nusxasi – 250 dona. Narxi keliшilgan holda.
Chop etishga 30.09.2023-yilda topshirildi.

Gazeta Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasida № 02-00166 raqami bilan 2012-yil 19-dekabrdan ro'yxatga olingan.

Gazeta oyning oxirgi haftasida "NISO POLIGRAF" MCHJ bosmaxonasida chop etiladi.
Manzil: O'rta Chirchiq tumani, Oq ota QFY, Mash'al mahallasi, Markaz – 1.